

SUN'IY INTELLEKT INSON TAFAKKURIGA TAHDIDMI YOKI IMKONIYAT?

Asrorova Mavludaoy Umurzoq qizi

Guliston Davlat universiteti Axborot texnologilari va fizika-matematika fakulteti
2-kurs talabasi

Asrorova Gulro'za Umurzoq qizi

Guliston Davlat universiteti Axborot texnologilari va fizika-matematika fakulteti
1-kurs talabasi

Kamolov Behruzбек Iskandar o'g'li

Guliston Davlat universiteti Ishlab chiqarish Texnologiyalari fakulteti
2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17103753>

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellektning inson tafakkuriga ta'siri, uning imkoniyatlari va ehtimoliy tahdidlari tahlil qilinadi. Sun'iy intellekt texnologiyalari rivojlanishi natijasida inson aqliy faoliyatining turli jabhalariga ta'sir etayotgani, xususan, ijodkorlik, tanqidiy tafakkur va kasbiy sohalaridagi o'zgarishlar muhokama qilinadi. Shuningdek, sun'iy intellektning inson tafakkurini rivojlantirish yoki aksincha, uni zaiflashtirish ehtimoli borasida turli nazariy yondashuvlar ko'rib chiqiladi.

Maqolada **“Tafakkur va sun'iy intellekt masalasi”, “Sun'iy intellekt kimlarni ishsiz qoldiradi?”, “Sun'iy intellekt va inson ongi”** kabi ilmiy maqolalar hamda boshqa tegishli manbalarga tayanilgan. Ushbu tadqiqot sun'iy intellektning inson tafakkuri uchun tahdid emas, balki imkoniyat sifatida ko'rishning strategiyalarini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, inson tafakkuri, avtomatlashtirish, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, texnologik rivojlanish, raqamli inqilob, kasbiy o'zgarishlar, axborot texnologiyalari, sun'iy tafakkur, algoritmlar, innovatsiya, axloqiy muammolar.

Sun'iy intellekt — informatikaning alohida sohasi bo'lib, odatda inson ongi bilan bog'liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o'rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug'ullanadi. Hozirda sun'iy intellekt turli amallarni bajarishga mo'ljallangan algoritm hamda dasturiy tizimlardan iborat va u inson ongi bajarishi mumkin bo'lgan bir qancha vazifalarning uddasidan chiqq oladi.

Sun'iy intellektning yorqin namunalaridan yana biri – IBM Watson superkompyuteri bo'lib, u o'z bazasidan kelib chiqib muayyan tilda berilgan savollarga javob beradi. Shuningdek, ko'pchilikning doimiy hamrohiga aylanib ulgurgan mobil yordamchi Siri, fotosuratlarini qayta ishlovchi Prisma kabi dasturlarni Sun'iy intellekt ning yutuqlaridan biri sifatida qayd etish mumkin. Hozirga kelib sun'iy intellekt keng ko'lamda ommalashib kundalik turmush tarzimizning deyarli barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Masalan, Xitoydagi Inchuan shahri aholisiga bank kartalarining keragi yo'q. Hisob-kitoblar bilan bog'liq barcha jarayonlar sun'iy intellekt tomonidan insonning yuz qiyofasini aniqlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Sun'iy intellekt haqidagi bahs-munozaralar qariyb 50 yildan beri davom etib kelmoqda. Mutaxassislar hanuzgacha bir to'xtamga kelishgani yo'q. Ba'zilar ularning ommalashib odamlar o'rnini egallab borayotgani natijasida ommaviy ishsizlik ko'rsatkichlari oshib ketishi mumkinligidan tashvishdalar. Mutaxassislarning boshqa bir guruhi esa Sun'iy intellekt ga ijobiy munosabatda bo'lish kerakligini uqtirishmoqda. Hatto IT- sohasidagi milliarderlar orasida ham turli qarashlar mavjud.

Jumladan, SpaceX asoschisi Ilon Mask Sun'iy intellekt ning butun boshli sivilizatsiyani barbod qilishiga ishonchi komil.

Maskning fikricha, "Sun'iy intellekt insoniyat sivilizatssiyasi uchun asosiy xavfdir. sun'iy intellekt mehnat bilan bog'liq ommaviy muammolarni keltirib chiqaradi. Sababi, robotlar hamma ishni bizdan ko'ra yaxshiroq bajara olishadi. Ilg'or texnologiyalar ortidan quvish natijasida, kompaniyalar sun'iy intellekt ortidan kelib chiqadigan xavf- xatarni ko'rmay qolishlari mumkin".

Shuningdek, Microsoft rahbari Bill Geyts ham uning zarariga to'xtalib o'tadi. "Bir necha o'n yildan so'ng, robotlar ishning katta qismini bajara boshlagach, Sun'iy intellekt shu qadar kuchayib ketadiki, yakunda u bizni xavotirga sola boshlaydi. Bu borada Ilon Maskning fikriga qo'shilaman. Ammo nega bu savol boshqalarni tashvishlantirmayotganiga hech tushunolmayman", –deydi Geyts.

Bugungi kunda ayrim davlatlarda robothamshiralar, xaydovchisiz transport vositalari, buyurtmani yetkazib beruvchi dronlar xizmatidan foydalanish yo'lga qo'yilgan. Hatto politsiya xodimlarining ba'zi vazifalarini ham maxsus robotlar bajarishyapti. Olimlar ularning tashqi ko'rinishini imkon qadar odamlarnikiga o'xshatishga urinishmoqda.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt jurnalistlarning doimiy ko'makchisiga aylanib ulgurgan. Masalan, Associated Pressda "ishlayotgan" robotlar moliyaviy hisobotlarni yozib boradi. Sun'iy intellekt ning qo'llanilishi ushbu nashrda har chorakda beriladigan yangiliklarni 300 tadan 4400 taga oshirdi.

Yuqoridagilardan tashqari, aksa-riyat iste'molchilarning robotlarga ishonch bildirmayotganligi sun'iy intellektning ommalashishiga halal berayotgan to'siqlardan biridir. Odamlar o'ziyurar mashina yoki samolyotlar xizmatini qabul qilishlari uchun biroz vaqt kerak, albatta. Biroq, zamonaviy texnologiya-lar qurshovida o'sib-unayotgan yosh avlodda buning aksi bo'lib, ularni bu jarayon u qadar havotirga solayotgani yo'q.

Har qancha e'tiroz va tanqidlarga qaramay sun'iy intellekt rivojlanishdan odamlarga yordam berishdan to'xtamayapti. Ayniqsa, tibbiyotda uning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Endilikda robotlar nisbatan murakkab jarrohlik amaliyotlarini ham uddasidan chiqishyapti. Robot-shifokorlarning tibbiyot hodimlari bilan o'ziga xos hamkorligi samaradorlikni ancha oshirdi.

Ko'rib turganingizdek, sun'iy intellekt ning hayotimizdagi o'rni kundan-kunga chuqurlashib bormoqda. Ular insoniyatning yutug'imi yoki mag'lubiyati, degan savol ustidagi bahslar hali uzoq davom etadi. Eng muhimi, fantastik yozuvchi Ishoq Azimov ta'biri bilan aytganda, robotlarni yaratishda odamlarga zarar yetkazmaslik shior qilib olinishi kerak.

Keyingi paytda inson ong-tafakkuri bilan yaratilgan sun'iy robotlardan og'ir sanoat korxonalarida foydalanishning iqtisodiy va, hatto, ijtimoiy-ma'naviy afzalligi to'g'risida ko'p gapirilmogda. Soha mutasaddilari yirik metallurgiya sexlarida, masalan po'lat quyishda, mashinasozlikda, uy-ro'zg'or buyumlarini yig'ishda sertalab ishchilar o'rniga robotlarni ishlatish katta foyda keltirishini o'ylab, ajabtovur rejalar tuzmoqdalar. Bu rejalariga ko'ra, uzoq yillar davomida og'ir va mas'uliyatli sharoitda mehnat qilib, katta tajriba orttirgan malakali quyuvchi, sozlovchi, yig'uvchi yoki butlovchi o'rnini ish beruvchidan maosh ham, mukofot ham, davanishga yo'llanma ham talab qilmaydigan, kasallikka chalinmaydigan, bo'lar-bo'lmasga ish tashlamaydigan, janjal ko'tarmaydigan mo'min-qobil robotlar egallaydi.

Bir qarashda, e'tiroz bildirish qiyin: ilmiy tafakkur, fan-texnika yutuqlari, yangi ixtirolar, izlanishlar shuni taqozo etmoqda. Hozirning o'zida yirik zavod va komplekslarda robotlar ter to'kib ishlayotganiga hammamiz guvohmiz: mehnat unumdorligi oshmoqda, mahsulot sifati yaxshilanmoqda, ishlab chiqarish rejalari ko'zlangan darajada bekamu ko'st bajarilayotir. Hech kim ishga kechikayotgani yoki takasaltanglik qilayotgani yo'q. O'rnatilgan tartib-intizomga robotlar so'zsiz rioya qilishadi. Bundan hayratga tushmaslikning iloji yo'q. Ammo, masalaning nozik bir tomoni ham bor-da...

Bugun dunyoda 200 million kishi ishsiz. Birgina Gretsiyaning o'zida ishga yaroqli aholining har to'rtinchisi mehnat qilish imkoniyatiga ega emas. Davos forumida rasman aytilganidek, tegishli kompaniyalarning hisob-kitoblariga ko'ra, 2030-yilga borib robotlashtirish siyosati tufayli dunyoda 800 million kishi ish o'rinlaridan mahrum bo'ladi. Ularning oilalari to'g'risida kim g'amxo'rlik qiladi? Bu birinchi mulohaza.

Ikkinchisi: olimlar faqat sanoat sohasida ishlay oladigan robotlar yaratish ustidagina emas, kir yuvadigan, bolalarga enagalik qiladigan, taom tayyorlaydigan, uyni yig'ishtiradigan, qorovullaydigan, dam olmoqchi bo'lsangiz, musiqa chalib beradigan, muqom qilib raqsga tushadigan, ovoz chiqarib qiroat bilan kitob o'qiydigan, qo'shiq kuylaydigan, mushaklaringizni uqalaydigan, bolangizga alla aytadigan, yig'loqilarni ovutadigan, tagini almashtiradigan, jiningiz suymaydigan kishi qo'ng'iroq qilsa, "Yo'qlar" deb javob qaytaradigan temir yordamchilar ustida ham bosh qotirmoqdalar. Bu ro'yxat ertaga, indinga, undan keyin yanada uzayadi, robotlarning yangi-yangi vazifalari paydo bo'ladi: ular takomillashishda davom etadilar, oralaridan ajoyib tadbirkorlar, zukko ishbilarmonlar, dilkash suhbatdoshlar yetishib chiqishi ehtimoldan xoli emas. Balkim gapni olib qochadiganlar, tilyog'lamachilar, mish-mish tarqatuvchilar, hasadgo'ylar, ishbuzuqilar ham paydo bo'lar. Oldindan bir nima deyish qiyin. Biroq... biz nima bo'lamiz, inson, insongarchilik, imon-e'tiqod, mehr-oqibat nima bo'ladi? Odam odam maqomida qoladimi-yo'qmi? Sofiya xonimning "Sun'iy intellektdan turli maqsadda foydalanish ham mumkin" degan javobi ogohlikka ishora bo'lmasin tag'in?! Nahotki odam o'z uyida, ona-beshigida ortiqcha bo'lib qolsa?

Sun'iy intellekt: sun'iy robot, sun'iy charm, sun'iy qoplama, sun'iy toladan tikilgan kiyim-bosh, sun'iy yo'l bilan yetishtirilgan meva-cheva, oziq-ovqat mahsulotlari, sun'iy dori-darmon, sun'iy urchitish, sun'iy soch, sun'iy tish, sun'iy lashtirilgan yuz-ko'z, demakki, sun'iy tabassum... Ayrim laboratoriyalarda oila, er-xotinlik, homiladorlik masalalariga sun'iy aralashishga doir ham tadqiqotlar o'tkazilyotgani sir bo'lmay qoldi. Ilmiy tafakkur yana nimalarga qodir? Besh, o'n, yigirma yoki ellik yildan keyin ayni shu yo'nlashda qanday "ixtiro"lar bo'ladi? Buni bugun hech kim aniq ayta olmaydi? O'zbekistonda 2017-yilning "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" deb e'lon qilinishida, odamlar bilan yuzma-yuz, ko'zma-ko'z suhbatlashilayotganida, har bir kishining fikri-zikriga quloq tutilayotganida yana bir muhim ma'no ham bor, meningcha: faqat bir mamlakatning emas, butun dunyoning, butun yer yuzining e'tibori, jamiki imkoniyatlarini inson omiliga, uning manfaatlarga qaratish, bu yo'ldan chalg'imaslik payti keldi.

Avvalo ta'kidlash joiz, ilm-fan taraqqiyotining har qanday yutug'i insoniyat mushkulini oson qilishga, uning muammolarini qisman bo'lsa-da hal etishga xizmat qilishi kerak. Shunday bo'lyapti ham: yillar davomida fazodan mustaqil tarzda turli ma'lumotlarni Yerga jo'natishdan tortib tabiiy va texnogen hodisalar vaqtida inson kirishi imkonsiz joylarga ham yetib

borayotgan, jarrohlarni ko'zi va barmoqlari ilg'amaydigan eng mayda to'qimalargacha mufassal tekshira olayotgan aynan shu katta-kichik sun'iy onglashtirilgan turli robotlar, mashinalar uskunalardir. Avvaliga xizmat ko'rsatish joylari, bemorlar va yolg'iz keksalarga ko'mak uchun ishlab chiqilgan bunday «temir odamlar» yildan-yilga har tomonlama takomillashib, fikrlashda insoniyat bilan bahslashishga shay turibdi, go'yo. Ya'ni, bir davrlar o'ziga qanot bog'lab uchmoqni orzulagan odamzod avlodlari bugun temirga «jon kiritish» ustida bosh qotirmoqda.

Sun'iy ong insoniyat uchun xatarli...mi?

Ingliz nazariyotchi-fizigi, ilm-fan targ'ibotchisi Stiven Xoking fikricha, sun'iy tafakkur taraqqiyoti kelajakda insoniyat tanazzuliga sabab bo'ladi. Olim sun'iy tafakkurning bu zaylda joriy etilishi odamlar ahvolini asta-sekin yomonlashtiradi, deb hisoblaydi. Chunki, bunday evolyusiyaviy sharoitlarda inson yashab qolish uchun doimiy kurashda bo'ladi va bu jarayon albatta uni halokatga olib keladi.

Butunjahon iqtisodiy forumi mutaxassislari ma'lumotiga ko'ra, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish natijasida 2020-yillarga borib dunyodagi 7 millionga yaqin odam o'z ish joylaridan mahrum bo'ladi. Sun'iy tafakkurni joriy etish iqtisodiyotda kutilmagan o'zgarishlarga salmoqli hissa qo'shish bilan birga, ma'lumotlarni qayta ishlashga aloqador bir qator mutaxassisliklarning yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'ladi – sun'iy intellekt jismoniy mehnat talab qiladigan va axborotlarni qayta ishlovchi, masalan, chakana savdo, mehmonxona xodimi va shu kabi boshqa kasblarni egallab oladi.

Amerika kompaniyalari mutaxassislari joriy yuz yillik o'rtalariga borib, dunyo bo'yicha ish o'rinlari soni qariyb 50 foizga qisqarishiga ishonishadi. Odamlar o'rnini analog operatsiyalarni bajara olish imkoniga yoki juda yuqori samaradorlikka ega mashinalar egallaydi. Hatto ekspertlar ushbu taxmin belgilangan muddatdan ancha oldin boshlanishini ham istisno etishmayapti.

Robotlar ham soliq to'lasin.

Boshqa tahlilchilar robotlarga murojaat qilishning zararli tomonlari haqida bong urishmoqda. Masalan, «McKinsey» ekspertlari robotlar odamlardan farqli o'laroq soliq to'lamasliklariga e'tibor qaratishgan. Ularning fikricha, budjetga soliqlar tushishi hajmi sezilarli kamayishi oqibatida davlatlar infratuzilmani avvalgidek qo'llab-quvvatlay olmaydi. Shu bois «Microsoft» asoschisi Bill Geyts robotlashtirish texnikalariga yangi soliq kiritish taklifini ilgari surgan. Bill Geyts sun'iy intellekt texnologiyalari rivoji insoniyatni tashvishga solishi kerak, deb hisoblaydi. «Men super-tafakkur taraqqiyoti istiqbolidan xavotirlanayotganlar bilan birgaman, – deydi Bill Geyts. – Dastavval mashinalar biz uchun ishlarning katta qismini bajarishadi, ammo ular hali super-tafakkurga ega emas. Agar ularni to'g'ri boshqara olsak, albatta bu yaxshi. Biroq, bir necha o'n yillardan so'ng sun'iy tafakkur yetarli darajada rivojlanadi va bu xavotirlanishga sabab bo'la oladi. Negadir ayrim olimlar ushbu muammoga yetarlicha e'tibor qaratishmayapti».

O'z navbatida, «Tesla» kompaniyasi asoschisi Elon Mask 2015-yili Massachusets texnologiyalar institutida bo'lib o'tgan anjumanda sun'iy tafakkurni «asosiy ekzistensial (hayotiy) tahdid» deb atagan edi. Ammo, sun'iy tafakkur taraqqiyotini «do'stona» qo'llab-quvvatlashga millionlab dollar sarmoya taklif qilgan ham aynan u. Masalan, ushbu anjumandan sal oldinroq milliarder sun'iy tafakkur xavfsizligi bo'yicha «Future of Life Institute» tadqiqotlariga 7 million sarflagan. 2014-yili esa bu maqsadlar uchun 10 mln. dollar yo'naltirgan va «aqlli» kompyuter tizimlari nazorati bo'yicha 300dan ortiq (ularning qirqqa yaqinini

shaxsan o'zi eng istiqbolli g'oyalar deb hisoblaydi) tadqiqot loyihalariga ega bo'lishga ham ulgurgan.

Shunga qaramay milliarder sun'iy intellektning tez sur'atlarda rivojlanishi bo'yicha o'z xavotirlarini hech qachon yashirmaydi. Intervyularidan birida u bu texnologiya «yadro qurolidan ham xavfliroq bo'lishi mumkin, odamlar esa bugun sun'iy ongning rivojlanish salohiyatini yetarlicha baholashmayapti», deya ochiq aytgan edi. Xo'sh, nega unda ushbu sohani moliyalashtiryapti? Bu savolga Elon Mask shunday izoh beradi: «Bu istiqbolli loyihalarga sarmoya emas va men bundan foyda olishni ko'zlaganim yo'q. Men shunchaki sun'iy tafakkur taraqqiyoti bilan bog'liq vaziyatlarni nazorat qilishni xohlayman xolos. Agarda nazorat mexanizmi yetarlicha kuchli bo'lmasa, «Terminator» filmi ssenariysi yaqin kelajakda real voqelikka aylanishi mumkin».

Xullas, xavotirlar qanchalik o'rinli va bu qachon yuz beradi — bunisi qorong'u. Faqat, Elon Maskning sun'iy tafakkur ishlab chiquvchilarga jarayon ustidan nazoratni saqlash muhimligini alohida ta'kidlab yo'llagan maktubida keltirilganidek, kompyuterlarning maqsadi bizning xohish-istaklarimizga mos kelishi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solmog'imiz zarur. Bir so'z bilan aytganda, kelajagimiz – o'sib borayotgan qudratli texnologiyalar va donishmandlik o'rtasidagi poygada qaysi jihat g'olib bo'lishiga bog'liq.

Yuqorida sanab o'tilgan sun'iy intellekt qo'llaniladigan sohalar hozirgi kundagi insoniyat faoliyatidagi muhim sohalar desak mubolag'a bo'lmaydi. Sun'iy intellekt nafaqat sanab o'tilgan sohalarda balki boshqa yo'nalish va sohalarda ham keng qo'llanilib kelinmoqda. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak sun'iy intellektning jamiyatda, sanoatda, fanda va inson hayot faoliyatida tutgan o'rni kattadir.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umaralievich, K. U. SPIRITUAL EDUCATION OF STUDENTS OF PEDAGOGICAL UNIVERSITIES ON THE BASIS OF CULTURAL AND HUMANISTIC APPROACH.
2. Suyumov, J., Madaliyeva, G., & Hakimova, K. (2021). IMITATION MODELING TECHNOLOGIES IN HIGHER EDUCATIONAL PROCESS. Теория и практика современной науки, (5), 18-21.
3. Suyumov, J. Y. (2021). Kompyuter imitatsion modellari asosida faol oqitish texnologiyasining nazariy asoslari. Scientific progress, 2(3), 459-466.
4. Suyumov, J. Y. (2021). Theoretical basis of active teaching technology on the basis of computer imitation models. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(7), 205-210.
5. Raximov, D. S. (2021). DIVERSIFIKATSIYA HUDUDLAR SANOATNI MUVOZANATLI STRATEGIKRIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(3), 199-207.
6. Рахимов, Д. Ш. (2021). Саноат иқтисодиётида маҳаллийлаштирилаётган.
7. Latipdjanovich, D. M., Shavkatjonovich, A. S., & Gofurjonovich, P. G. IMPROVE THE

STRENGTH OF HMAC BASED ONE TIME PASSWORDS USING SHA3 IN HMAC. НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ И ПОДХОДЫ, 2016, 34.

8. Pulatov G. G. Simsiz tarmoqni uzaytirish muammolari va yechimlari.

